



Volume: 46 / 2024

Economy and Innovation

ISSN: 2545-0573

For more information contact : [editor@gospodarkainnowacje.pl](mailto:editor@gospodarkainnowacje.pl)

GOSPODARKA I



## INGLIZ VA O`ZBEK TILLARI ANTROPONIMLARINING LISONIY TAHLILI

**Mamajonov Muhammadjon Yusubjonovich**

Farg`ona davlat universiteti, Chet tillari fakulteti dekani, f.f.d(Phd)

**Nigmatova Nozimaxon Ulug`bek qizi**

Farg`ona davlat universiteti, lingvistika ingliz tili magistranti

[Comrehensible@gmail.com](mailto:Comrehensible@gmail.com)

### ARTICLE INFO.

### Abstract:

**Keywords:** *til, antroponim, lingvisika, motiv, motivatsiya, struktura, onimizatsiya, antropotsentrizm, semantika*

Ushbu maqolada antroponimlarni o`rganishning motivatsion jihati jahon tilshunosligida xususan, ingliz va o`zbek tillari antroponimiyasining maxsus lingvistik quyi tizim sifatida rivojlanish va faoliyat ko`rsatish qonuniyatlarini ochib berishi bilan bog`liq va antroponimlarning motivatsiyasi sohasidagi taqqoslangan tillar o`rtasidagi chuqur tarkibiy farqlarni ochib beradi. Ingliz va o`zbek antroponimlarining yo`qolib ketish sabablarini tushunish uchun ingliz, o`zbek tillarining antroponimik sotsial-semantik tahlili haqida ma`lumot berilgan va muayyan motivlarning paydo bo`lishi tadqiq etilgan. Ingliz va o`zbek tillaridagi antroponimlarning o`ziga xos motivlari aniqlangan va o`rganilayotgan tillarning antroponimlarining sotsial-semantik tahlili ko`rib chiqilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

### Kirish

Ingliz antroponimlarining ma`nolari har doim ham mamlakat tarixi bilan bog`liq emas, ularga kelt qabilalari, Franko-Normanlar va Anglo-sakson qabilalari ta`sir ko`rsatishgan. Qadimda insonga bir ism berilgan bo`lib, unda sehrli ma`no mavjud deya ishonilgan. Ko`pincha bu nom insonning xarakteri yoki tashqi xususiyatlari haqida gapirar, baxtli hayot tilsimi sifatida qaralar edi. Shuning uchun ko`pincha "baxt", "sog`liq", "boylik" kabi so`zlar nomlarga kiritilgan. Ko`pgina erkak ismlari jangovarlik va qat`iyat ma`nolarini ifoda etgan: Charli (er, odam), Oliver (armiya), Uilyam (iroda, orzu), Rayli (mard). Ayollarning ismlari romantik ma`no va muloyimlikni madh etgan: Xazer (heather), Nilufar (Lily) (nilufar guli), Ifa (go`zallik), (Grace) Greys (lutf, marhamat).

Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch



Faqat XVI asrda xristian ismlari mashhur bo'ldi, bu esa xalq an'alarini sezilarli darajada o'zgartirdi. Masalan, Yuxannono nomi Jon, Jons, Ian, Meri kabi shakllarda vujudga keldi. Ioanna ayol nomi Angliyada Ioannaning o'zgartirilgan norman shakli sifatida paydo bo'ldi, undan yana uchta mustaqil ism paydo bo'ldi: Jeyn, Joan va Jin.

Tarixiy antroponimlar ma'lum tarixiy yozma manbalarda yoki folklor asarida uchrashi bilan xarakterlanadi. Yodnomalarda qayd etilgan antroponimlarning hozirda ishlatilmasligi ularni unutilgan, "o'lik" ismlar qatoriga kiritadi. Antroponimlar turli tarixiy davrlardagi holati va rivojini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. O'zbek antroponimlarini tarixiy yodnomalardagi xususiyatlariga qarab, ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Umumturkiy davrga xos bo'lgan yodnomalardagi antroponimlar (VI-XIV asrlar) 2. Eski o'zbek adabiy tiliga xos bo'lgan yodnomalardagi antroponimlar (XV asr va keyingi davrlar)

Tarixiy ingliz antroponimlari quyidagi turlarga bo'linadi:

1. An'anaviy inglizcha nomlar (german, shotlandiyalik, kelt va norman nomlari)
2. Mustaqil nomlarga aylangan ismlarning qisqa shakllari
3. Boshqa tillardan olingan ismlar (xristian va fors tillari)
4. Tarixiy ildizlari yo'q sun'iy nomlar.

Antroponimlarni tahlil qilishda bag'ishlov ismlar ham alohida o'rin tutadi. Chunki bag'ishlov ismlarning yuzaga kelishi qadimiy tarix bilan bog'liq bo'lib, u ma'lum bir xalqning e'tiqodi va ishonchi, magik qarashlariga borib taqaladi. Bu borada tadqiqot olib borgan Sabohat Kenjayeva bag'ishlov ismlarining bir guruhi haqida yozilgan maqolasida o'zbek antroponimiyasining o'ziga xos guruhlari mavjud bo'lib, ularni uchga bo'ladi:

- 1) Ism bag'ishlovlar (memorativlar);
- 2) tasviriy ismlar (deskriptivlar);
- 3) ism-istaklar (dezirativlar)<sup>1</sup> kabi.

Deyl Karnegining fikriga ko'ra, ingliz xalqi, balki butun dunyo xalqlari ham, qadim tarixdan to bugungi kungacha turli xil dinlarga, xudolarga, totemistik, fetishizm va ko'plab urf-odatlariga amal qilgan. Bunday diniy manbalarga ishonish, ularga bo'lgan hurmat ingliz antroponimiyasida hozirgacha saqlanib qolgan. Tarixdan farzandli bo'lish biror ilohiy, muqaddas kuchning irodasi, ehsoni deb tushunish natijasida chaqaloqqa o'zlari ishongan iloh, e'tiqod etgan narsalar nomi bilan bog'liq tushunchalar ism qilib berilishi natijasida bag'ishlov ismlari paydo bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham ism berilishida bunday ishonch va e'tiqodlar muhim o'rin egallaydi. Farzand ota-ona uchun Xudo tomonidan in'om etilgan buyuk ne'mat deb qaraladi.

Antroponimlarning ba'zi turlari mavjudki, ularda tarixiylikdan, tarixan bildirgan ma'nosi bilan bog'langan motivlaridan tashqari ma'lum tarixiy shaxslarni ham motiv sifatida olinish hollari juda ko'plab uchraydi. Bunda ma'lum nomli tarixiy shaxslar o'z shaxsiy xususiyatlari bilan xalqda yorqin, kerak bo'lsa ishonish, o'sha shaxsga nisbatan havasni, e'tiqodni uyg'ota oladi. Natijada shaxsning vafot etishi yoki uning tiriklik paytidan boshlab, shaxsning xususiyatlari uning ismiga ko'chib o'tadi va xalq bunday farzandlari ko'payishini xohlaydi. Asta sekinlik bilan bu nomlarni farzandlarga qo'yishda antroponimning oldingi ma'nosiga qo'shimcha ravishda ma'lum shaxsning siymosi ham qo'shiladi. Ingliz va o'zbek antroponimlarining tarkibida bunday ismlarni juda ko'plab uchratish mumkin. Bunda ismlar sirasiga xalqni dushmanlardan ozod etgan, xalq g'amini tushunib, xalqning og'irini yengillashiga o'z hissasini qo'shgan, butun umr vatan ravnaqi uchun yashagan, ilm-u fanda

<sup>1</sup> Kenjayeva S. Bag'ishlov ismlarining bir guruhi haqida. O'zbek tili va adabiyoti, 2011. 2-son. –B.91.

butun dunyoga dong'i yoyilgan olim bo'lgan va faqat yaxshi fazilatlarini ko'rsata olgan shaxslargina bunday baxtga muyassar bo'lgan. Bunday shaxslar bilan bog'liq antroponimlar qatoriga quyidagi antroponimlarni ham kiritish mumkin:

Madaminbek(ar.–Muhammad(sav)ning sodiq, ishonchli, sadoqatli odamidir. Amin – Muhammad (sav) ning sifatlaridan biri (O'sha asar, 200-bet) deb belgilangan bo'lsa-da, lekin xalqimizning orasida xuddi shu ma'nolardan tashqari XX asr boshlaridagi o'zbek xalqining ozodligi uchun jonini fido qilib olishgan qo'rboshi Madaminbek antroponimida motivlanish holatini kuzatamiz; Alisher (ar.-ft.) – sherdek jasur, dovyurak bo'lib o'ssin va Ali qo'llab yursin (O'sha asar, 29-bet) degan ma'noni ifodalagan bo'lsa-da, bundan tashqari, bu ismni hozirgi kunda ota-onalarimiz bola tug'ilganda adabiyotimizning yuksak cho'qqilarga olib chiqqan buyuk bobomiz Alisher Navoiyga bog'lab qo'yish hollarini ham kuzatishimiz mumkin; Navoiy (ft.) – kuyga, qo'shiqqa mansub, buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiyga nisbat berilgan ism. Buyuk shoir Navoiyga o'xshasin, Navoiydek shuhrat topsin deb orzu qilingan (O'sha asar, 289-bet); Chingiz (mo'g' – buyuk, qudratli. Mashhur jahongir Chingizxon (1227-yili vafot etgan) nomiga nisbat berilgan ism (O'sha asar, 481-bet)). Shohruh (ft. – viqorli, kelishgan; chiroyli, zebo yoki shaxmatdagi shoh ruhi. Rivoyatga ko'ra, Temur shaxmat o'ynab o'tirganida o'g'il tug'ilganini eshitadi va unga Shohruh deb nom beradi) (O'sha asar, 506-bet), Bobur/Bobir ((ar.) – arslon, yo'lbars; ulug', ulkan, buyuk (O'sha asar, 63-bet) kabi ma'nolari bilan birga, bu antroponimning Zahiriddin Muhammad Boburning ismiga bog'liqligi ham motivlovchi vazifasida kelishi mumkin), Ulug'bek, A.Temur, Jaloliddin, Mashrab, Yassaviy, Ibn Sino, Behzod, Mironshoh, Temur Malik kabi antroponimlarni ham ota-ona o'z farzandiga qo'yishda, albatta, ushbu ism bilan atalgan shaxslarning faoliyatiga e'tibor qaratmasdan iloji yo'q deb o'ylaymiz. Shunday ekan, hozirgi kunda Temur/Temir, Temurbek/Temirbek ismlarini qo'yishda nominatorlar bu antroponimning temirdek mustahkam, mahkam, ya'ni balo-qazolarga bardoshli, umri uzoq bola (O'sha asar, 409-bet) singari ma'nolaridan tashqari nominatorlar ism tanlashda Amir Temur timsolini hisobga olib, ana shu tarixiy shaxsga o'xshash inson bo'lsin deb, Temir ismini qo'yishadi.

Ingliz shaxs nomlarining tarixiy rivojlanish yo'li angliya-sakslardan boshlanadi. Ular, boshqa qadimgi german qabilalari aholisi kabi, uning tuzilishida bir nomga ega bo'lgan, oddiy (Froda - "dono, eski"; Hwita - "oq" va boshqalar) yoki murakkab (Aethelbeald - "olijanob, ajoyib, a'lo + jasur"; Eadgar – "egalik, mulk, mol-mulk, boy + nayza" va boshqalar). Ba'zi eski ingliz birikmalar nomlari semantik darajadagi maxsus ekzotsentrik kompozitlardir. Bu qo'shma nomlarning ma'nosi ularni tarkib topgan komponentlarning qiymatlari yig'indisi bilan belgilanmaydi. Masalan, Frithuwulf "tinchlik, xavfsizlik + bo'ri", Wigfrit "kurash, urush + tinchlik, xavfsizlik" degan ma'noni anglatadi.<sup>2</sup>

Shaxs ismlarni boshqa tidan o'zlashtirib olish ham o'zgarishlar bilan birga keladi. Qabul qiluvchi til tizimi shaxs nomlarni qayta ishlaydi va o'zlashtiradi. Xorijiy so'zning qabul qiluvchi til sistemasi bo'yicha moslashishi barcha til sathlarida - semantik, morfologik, fonetik o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. «Словарю личных имен Белоруссии»<sup>3</sup> lug'atida mashhur tilshunos M.R. Sudnik "Ruscha ivan nomini hamma ham semantikasini osonlikcha tatqiq eta olmaydi, polyaklarda Yan, armanlarda Avanes, Gruzinlarda Vano, fin millatida Yuhan, nemislarda Hans, frantsuzlarda Jan, inglizlarda esa Yahyo juda boshqacha yaxudiy tilida nomi Johanaan kelib chiqqan, italiyanlarda Jiovanni, ispanlarda Xuan (Joan shaklida fransuz tili adabiyoti orqali butun jahonga tanilgan),

<sup>2</sup> Kuritskaya Elena Vladimirovna, Ph. D. in Military Sciences Naval Academy named after the Admiral of the Fleet of the Soviet Union N. G. Kuznetsov (Branch) in Kaliningrad "HISTORICAL WAY OF THE ENGLISH ANTHROPONYMS DEVELOPMENT" article 3-p.

<sup>3</sup> М. Р. Судник «Словарю личных имен Белоруссии» с-5.

portugallarda Joan ".

Ko'plab ingliz antroponimlari tarkibiy qismlari Eski ingliz tili davridan (The Old English) manbalaridan olingan. Aelf – Elf, Beorht – yorqin, Beorn - inson, jangchi, qahramon, Eald – qari,yoshi katta, Gifu, Gyfu - sovg'a, god – ezgulik, Gold - tillo; Leof -sevimli,qadrli, Maere – Mashxur, Raed – maslahat, Rice – qudratli, jasur, Sae – dengiz, daryo, Sige – G'alaba, Stan – tosh, Sunu – o'g'il.<sup>4</sup>

Demak, "Dictionary of English Surnames" lug'atida berilgan ingliz antroponimlarining ko'plab ismlari o'zbek ismlariga ekvivalent bo'la oladi. Masalan: Beorht – Yorqinjon, Beorn – Qahramon, Gold – Tilloxon, Maere – Mashxurbek, Sige – G'olibjon.

Shuni xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tilshunosligida antroponimlarining sotsial-semantik tahlili orqali shaxs nomlarining ingliz va o'zbek millatlarining sotsial hayotidagi tutgan o'rni vazifalari va ularning semantikasining ijtimoiy hayotga ta'siri haqida tadqiq etdik.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kenjayeva S. Bag'ishlov ismlarining bir guruhi haqida. O'zbek tili va adabiyoti, 2011. 2-son. – B.91.
2. Kuritskaya Elena Vladimirovna, Ph. D. in Military Sciences Naval Academy named after the Admiral of the Fleet of the Soviet Union N. G. Kuznetsov (Branch) in Kaliningrad "HISTORICAL WAY OF THE ENGLISH ANTHROPONYMS DEVELOPMENT" article 3-p.
3. М. Р. Судник «Словарю личных имен Белоруссии» с-5.
4. Reaney P., Wilson R. Dictionary of English Surnames. L.: Oxford University Press, 2006. 594 p.
5. Гумбольдт В.Ф. Избранные труды по языкознанию. – Москва, 1984

<sup>4</sup> Reaney P., Wilson R. Dictionary of English Surnames. L.: Oxford University Press, 2006. 594 p.